YOSH FUTBOLCHILARDA TEZKORLIK SIFATINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

TEMIROV SHOIRBEK RAIMJONOVICH
Andijon davlat universiteti dotsenti
AHMADJONOV ASQARALI ALIMARDON O‘G‘LI
Andijon davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sport ixtisoslashuvi va tayyorgarlik bosqichidagi yosh futbolchilarda tezkorlik sifatini rivojlantirishning pedagogik-metodik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, yosh futbolchilarning yosh davrlari xususiyatlarini inobatga olgan holda harakatlar chastotasini oshirish, tezlik-kuch sifatlarini tarbiyalash, shuningdek, mashg'ulot jarayonida turli o'yin mashqlari va interval usullarini qo'llash metodikasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Yosh futbolchilar, tezkorlik, jismoniy tayyorgarlik, harakat reaksiyasi, mashg'ulot jarayoni, interval usul, jismoniy sifatlar.

KIRISH. Yosh futbolchilar bilan ishlashdagi dastlabki tayyorgarlik bosqichida ularning har tomonlama jismoniy tayyorgarlikni egallashiga, sog‘lig‘ini mustahkamlash va mutanosib rivojlanishiga, xilma-xil ko‘nikma va malakalarni egallab olishiga, futbol o‘yini texnikasi va taktikasining boshlang‘ich asoslarini o‘rganishiga qaratilgan vositalar kompleksidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Jismoniy tayyorgarlikning bu vaqtdagi vazifasi, avvalo, yosh futbolchilarning jismoniy sifatlarini (kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va epchillik), shuningdek o‘z harakatlarini vaqt oralig‘ida (havoda va mushaklarning zo‘r berishi darajasiga ko‘ra boshqara bilish harakat funksiyasining asosiy komponentlaridir) shakllantirishdan iborat bo‘ladi. Harakatlar tezligini tarbiyalashga katta e’tibor berish kerak. Chunki bolalik va o‘smirlik yoshida ana shu eng muhim jismoniy sifatni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar mavjuddir.

Shuni qayd qilish kerakki, dastlabki tayyorgarlik va boshlang‘ich sport ixtisoslashuvi bosqichlarida tezkorlik chaqqonlik bilan mustahkam bog‘liq ravishda tarbiyalanadi, bu esa siljishning (bir joydan ikkinchi joyga o‘tishning) ratsional texnikasini muvaffaqiyatli egallab olish uchun zarur asos yaratadi. 8-12 yoshlar oralig‘ida yugurishdagi maksimal tezlikning anchagina ortishi harakatlar tezligining tabiiy o‘sishi bilan bog‘liq. 12-14 yoshda esa tezlik asosan tezlik-kuch sifatlarining va mushak kuchining o‘sib borishi tufayli ortadi.

Shuning uchun tezkorlikni rivojlantirishda yugurish sur’ati va katta mushak kuchini talab etadigan harakatlar chastotasini maksimal ravishda oshirishga harakat qilish kerak. Bunda tabiiy harakatlarga ko‘proq o‘rin berish lozim. O‘yin, musobaqa ko‘rinishida bajariladigan sport o‘yinlari, harakatli o‘yinlar va mashqlar ham juda katta yordam ko‘rsatishi mumkin.

O‘yin mashqlarini bajarish yosh futbolchilarni g‘alabaga erishish uchun maksimal kuch sarflashga majbur etadi. O‘yin materiali mashg‘ulotdagi umumiy vaqtning 50% chasini egallashi kerak. Har bir mashq qisqa vaqt ichida (10-15 soniya) bir necha seriyali usulda bajariladi, dam olish intervali 10-15 *m* bo‘ladi. Maksimal tezlik bilan qayta yugurish muhim ahamiyatga ega, bu 20 *m* gacha masofada estafeta usulida bajariladi. Mashg‘ulotlarga estafetalardan tashqari 10-15 *m* ga yugurish bo‘yicha nazorat mashqlarini kiritish ham tavsiya etiladi. Murakkab harakat reaksiyasini va harakatlar chastotasini rivojlantirish uchun turli sport holatidan yuguriladigan tezkorlik mashqlaridan keng foydalanish kerak. Bu mashqlar turli xil ko‘ruv signallariga binoan, yugurish yo‘nalishini o‘zgartirib bajariladi. Bu esa o‘yin jarayonida vujudga keladigan murakkab vaziyatlarni modellashtirib, signallarning har biriga javob harakatlari bilan reaksiya ko‘rsatish imkonini beradi.

Boshlang‘ich sport ixtisoslashuvi bosqichida keng ko‘lamdagi o‘yinlar, o‘yin mashqlarini qo‘llashdan tashqari, asosiy jismoniy tayyorgarlik mashqlari komplekslaridan foydalanish mumkin. Bu har tomonlama jismoniy tayyorgarlikning mustahkam bazasini yaratish uchun qulay shart-sharoitni yuzaga keltiradi. Ko‘proq tezkorlikni rivojlantirishga qaratilgan komplekslarni darsning asosiy qismi boshlarida qo‘llash kerak, shundan so‘ng bu sifatni takomillashtirishga yordam beruvchi o‘yinlardan foydalanish lozim. Kuch talab qiluvchi tegishli o‘yinlar va o‘yin mashqlari kompleksiga, shuningdek, chidamlilik ko‘rsatishni talab etadigan o‘yinlar komplekslariga ancha kam vaqt ajratiladi. Ular tegishlicha darsning o‘rtasida va oxirida o‘tkaziladi.

O‘yinlar va maxsus tayyorgarlik mashqlari komplekslarini o‘z ichiga oluvchi vositalarning rang-barangligi bolalar va o‘smirlarning umumiy jismoniy tayyorgarligini yaxshiroq takomillashtirishga va uning zaminida ularning asosiy jismoniy sifatlarini maxsus ravishda rivojlantirishga yordam beradi.

Jiddiy mashg‘ulot qilish va takomillashish bosqichida tezkorlikni rivojlantirishga katta e’tibor beriladi, chunki tezkorlikni oshirish ancha murakkab ish. Tezkorlikning erishilgan darajada vaqtidan ilgari barqarorlashib qolishidan qutulish uchun maksimal tezlikda takroriy yugurish bilan bir qatorda tezlik-kuch, shaxsiy kuch mashqlaridan keng foydalanish, ya’ni yugurish tezligini, asosan, dinamik kuch hisobiga oshirish kerak. Kuchni tezlik bilan namoyon qilish qobilyatini tarbiyalashda dinamik zo‘r berish uslubini qo‘llash maqsadga muvofiqdir, bunda yengil yukni maksimal tezlikda boshqa joyga ko‘chirish yo‘li bilan haddan tashqari zo‘r berishga erishiladi.

Juda ham jadallik bilan bajariladigan mashg‘ulot kuchli vositadir. Shuning uchun maksimal tezlikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni tez-tez, lekin kichikroq hajmda o‘tkazib turish lozim. Harakatlar tezligini oshirishga qaratilgan mashqlar me’yorini to‘g‘ri belgilash, mashqlarning tezligini pasaytirmay, necha marta takrorlanishini, shuningdek, imkon chegarasi yoki unga yaqin tezlikni pasaytirmay bajariladigan uzluksiz mashg‘ulot ishlarining qancha davom etishini hisobga olish uchun zarur. Tezkorlikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar yosh futbolchining sub’ektiv sezgilari, charchaganlikning tashqi belgilari yoki sekundomer ko‘rsatkichlari harakat tezligining pasayganligidan dalolat bergan vaqtda to‘xtatiladi. Bu pasayish mazkur mashg‘ulotda tezkorlikni rivojlantirish ustida olib borilayotgan ishlarni to‘xtatish uchun birinchi signal («etarlilik mezoni») bo‘lib xizmat qiladi.

Maksimal tezlik bilan bajarish mumkin bo‘lgan mashqlar tezkorlikni rivojlantirish vositalari sifatida qo‘llaniladi. Birinchi navbatda, uch guruh mashqlari: umumiy rivojlantiruvchi (tezlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan), o‘z sport turlaridagi maxsus mashqlar va boshqa sport turlaridagi mashqlar qo‘llaniladi. Bunda hech bo‘lmaganda uchta talabni hisobga olish lozim:

1. Mashqlar oxirgi tezlikda bajarilishi kerak.
2. Mashqlar shug‘ullanuvchilar tomonidan shunchalik yaxshi o‘zlashtirilgan bo‘lishi kerakki, harakat vaqtida harakatni bajarish usuliga emas, balki uni bajarish tezligiga zo‘r berilsin.
3. Mashqning davom etishi (yoki masofaning uzinligi) shunday bo‘lishi kerakki, mashqni bajarish oxiriga kelib tezlik charchash natijasida pasaymasin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.08.2025 yildagi PQ-262 sonli O‘zbekistonda futbol sohasini raqamlashtirish va ommaviyligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Qarori.
2. Ibragimov A.T. Futbol. O‘quv qo‘llanma. Tashkent-2019.
3. Eshov D.N., Boymurodov B.N. Futbol mashg‘ulotining nazariyasi va metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2025 y.
4. Alimov T.Ya. Futbol va uni o‘qitish metodikasi. Darslik. PUBLISHING HIGH FUTURE” OK nashriyoti, 2025. – 384 bet.
5. Nurimov R.I va boshqalar. Futbol nazariyasi va uslubiyati. Darslik/ Pres nashriyoti, 2018 y.